

## QASHQADARYO VILOYATINING SUG‘ORILADIGAN YERLARI VA EKIN TURLARI

**Xujamova Muhabbat Tog‘ay qizi**

Qarshi muhandislik – iqtisodiyot instituti

E-mail: [xujamovamuhabbat@gmail.com](mailto:xujamovamuhabbat@gmail.com)

**Annotatsiya.** Hozirgi rivojlanish davrida dehqonchilikka katta e‘tibor qaratilmoqda. Shu sababli, ushbu maqola mazmuni Qashqadaryo viloyatining sug‘oriladigan yerlari hamda ekin turlariga qaratildi.

**Kalit so‘zlar.** Resurs, o‘simlik, yaylov, tekislik, vegetatsiya, hosildorlik, tog‘oldi, chala cho‘l, cho‘l, qishloq xo‘jaligi.

## IRRIGATED LAND AND CROP TYPES OF KASHKADARYA REGION

**Annatation.** In the current era of development, a lot of attention is paid to agriculture. Therefore, the content of this article focuses on irrigated lands and crops in Kashkadarya region.

**Keywords.** Resource, vegetation, pasture, plain, yield, foothills, semidesert, desert, agriculture.

Qashqadaryo viloyatning o‘simlik resurslari qishloq xo‘jaligida foydalanish nuqtai nazarda yaylov chorvachiligi muhim ahamiyatga ega. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, Qashqadaryo viloyati yer jamg‘armasidan foydalanish tuzilmasida yaylov sifatida foydalaniladigan yerlar eng katta maydoni (1514.4 ming hektarni ) tashkil etadi.

Yaylov sifatida foydalaniladigan yerlarning katta qismi cho‘l va tog‘ oldi chala cho‘l zonalariga to‘g‘ri keladi. Yaylovlarning o‘rtacha hosildorligi har hektarga 1.2 sentnerdan 3.3 sentnergacha o‘zgaradi. Tekislik yaylovlarning katta qismi uchun

vegetatsiya davri qor qoplarning yupqa bo‘lishi yoki deyarli hosil bo‘lmasligi va qishining qisqa bo‘lishi yil davomida foydalaniladi va eng arzon ozuqa beradi.

Viloyatda 2001-yilda hamma tumanlar bo‘yicha qishloq xo‘jalik reja va amalda ekin qaydnomasida paxta, beda, makka, bog‘ va uzum, g‘alla va boshqa ekinlar ekish rejasi va amalda bajarilganligi hamda foiz hisobida berilgan. Jami viloyatlar bo‘yicha jami yerlar rejasida (482743 ga) bo‘lsa, amalda esa (472801 ga) foiz hisobida 98 %, shundan paxta rejada (164000 gektar) bo‘lsa amalda (162679 ga) bajarilgan bu foizda 90 % ni bildiradi. Bu bo‘lsa rejada (46700 ga) amalda (44149 ga) rejadan kam bajarilgan. Foiz hisobida 95%. Makka rejada(33744 ga) amalda esa (9212ga) 27 % ni tashkil etadi. Bog‘ va uzum rejada (36863 ga) berilgan amalda esa (37002 ga) rejadan ortiq bajarilgan va 100% bajarilgan. G‘alla rejada (131000 ga) amalda (131000 ga)100 % bajarilgan. Boshqa ekinlar (70436 ga) amalda (88705 ga) rejadan 126 foiz ortiq bajarilgan. To‘plangan 5 yil ma'lumotlardan foydalanib, ekilgan ekinlar va ekish qaydnomasini yillar davomida o‘zgarishi o‘rganildi. 2001 – yilda (482743 ga) reja berilgan edi. Amalda esa (472801 ga) reja to‘liq bajarilmagan. 2002 –yilda reja (470756 ga) berilgan amalda esa (485612 ga) reja ortig‘i bilan bajarilgan. 2003 –yilda jami reja (487265 ga) amalda esa (487327 ga) reja100 % bajarilgan. 2004-yilda reja (495594 ga) amalda (495594 ga) reja 100 % bajarilgan. 2005 –yilda (500537 ga) amalda (500537 ga) reja 100 % bajarilgan.)

Qashqadaryo vohasi sug‘oriladigan yerlariga manbalardan olingan suv miqdorining yillararo o‘zgarishini o‘rganish maqsadida Amu-Qashqadaryo irrigatsiya havza boshqarmasidan ma'lumotlar to‘plandi. Bunda Qashqadaryo, Eski Anhor va Qarshi magistral kanalidan sug‘orilgan.

1-jadval

Qashqadaryo vohasi sug‘oriladigan erlariga olingan suv miqdorining yillararo o‘zgarishi (mil.m<sup>3</sup>)

Yillar	Qashqadaryodan	EskiAnhordan	Qarshi magistral kanaldan	Jami
1981	1242,1	313,1	3379,5	4934,7
1982	1023,4	252,1	3272,8	4548,3
1983	896,3	349,3	4237,5	5483,1
1984	868,9	448,1	4572,7	5889,7
1985	1121,5	350,9	4581,6	6054,0
1986	571,1	265,5	4086,2	4922,8
1987	980,7	340,5	4224,3	5545,5
1988	1321,1	395,1	4574,5	6290,7
1989	1126,1	248,5	4511,3	5885,9
1990	1184,1	349,6	4365,7	5899,4
1991	1275,6	348,3	4301,4	5925,3
1992	1894,5	388,2	3821,5	6104,2
1993	1843,2	328	3752,7	5923,9
1994	1846,3	428,7	3962,8	6237,8
1995	1048,7	334,4	4182	5565,1
1996	1205,3	517,4	4603	6325,7
1997	1786	567,8	4708,2	7062,0
1998	1284,5	601,5	4711,4	6597,4
1999	644,3	236,3	1710,2	2590,8
2000	725,8	248,9	3524,2	4498,9
2001	908	329	3517,3	4754,3
2002	776,2	342,6	3729,1	4847,9
2003	1214,4	400,8	3744,7	5359,9
2004	1171,9	417,5	3776,8	5366,2
2005	1652,8	367,6	3627	5647,4
2006	1206,5	328,7	3500,2	5035,4
2007	1214,7	375,3	4050,4	5640,5
2008	1253,4	386,0	4141,0	5780,3
2009	1292,0	396,6	4231,5	5920,1
Ŷpra.	1192,4	367,5	3979,4	5539,2

Jadval Qashqadaryo viloyati qishloq va suv xo‘jaligi boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Baratov P. – O‘rta Osiyo daryolari va ularning xo‘jalikdagi ahamiyati.- Toshkent: Fan, 1967. –

2. Rasulov A.R., Hikmatov F. H., Aytbaev D.P. Hidrologiya asoslari. –Toshkent: Universitet, 2003. -327 b.
3. Yunusov G.X.,Xikmatov F.X. Vodny balans novooshaemoy territorii Kashkadarinskoy oblasti. - Vopros geografii i geoekologiya.Qozog‘iston, Almata, 2013, №1, 23-27.
4. Yunusov G.X., Xikmatov F.X.Struktura poter rechnx vod i vodny balans oroshaemx territoriy (monografiya). - Toshkent, Fan va texnologiya, 2013.-142 s.
5. <http://www.avesta.tj>
6. <http://www.astronet.ru>

